



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG'I**

2024 yil "15" yanvar 01293-edo - son

**"Techno Ways" texnologik rivojlanish marofonining Toshkent tibbiyot
akademiyasi bosqichini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi "Respublika oliy ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-6309-sonli farmoni va 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi "Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-sonli qarori, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagli "Talaba va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida"gi 351-sonli buyrug'ida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagli "Talaba va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida"gi 351-sonli buyrug'iga ilova qilingan kalendar rejaning 1-bandiga muvofiq "Techno Ways" texnologik rivojlanish marofonining (keyingi o'rnlarda – "Techno Ways" marafoni) Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rnlarda-TTA) bosqichi TTA bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari o'rtasida 2024-yil 12-19 yanvar kunlari o'tkazilsin.

2. "Techno Ways" marafoniga tayyorgarlik ko'rish, tashkillashtirish va uni o'tkazish uchun mas'ul etib Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova va TTAning Yoshlar akademiyasi liderlari belgilansin.

3. Quyidagilar:

"Techno Ways" texnologik rivojlanish marofonining TTA bosqichini o'tkazish dasturi 1-ilovaga muvofiq,

"Techno Ways" texnologik rivojlanish marofonining TTA bosqichini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq,

"Techno Ways" marafonining TTA bosqichi g'oliblarni aniqlash bo'yicha maxsus tanlov komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq,

"Techno Ways" marafonining TTA bosqichini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, Magistratura

va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A. Imamov barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlariga hamda TTAning Yoshlar akademiyasi liderlari:

TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilari hamda bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari mazkur buyruq va Nizom bilan tanishtirilsin;

"Techno Ways" marafoni doirasida ilmiy-innovatsion loyihalarni qo'llab quvvatlash va ijro etish maqsadida "Mening startap loyiham" inkubatsion dasturini ishlab chiqsin va targ'ibotini olib borsin;

"Techno Ways" marafoni ishtirokchilari uchun startap loyihalarni rivojlantiruvchi malakali spiker va mentorlarni jalg qilgan holda "Mening startap loyiham" mavzusida Seminar trening joriy yilning 17-fevralida tashil qilsin;

TTA taxsil olayotgan talabalar tomonidan amalga oshiriladigan Startap loyihalar katalogini ishlab chiqish;

"Techno Ways" marafonining TTA bosqichi g'oliblarni aniqlash tanlovi (keyingi o'rinnlarda – Tanlov) joriy yilning 19-fevralida TTAning bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari o'tkasida o'tkazilsin;

mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro'yxatlar bo'yicha "Techno Ways" marafonida ishtirok etishi ko'rsatilgan TTA xodimlari va talabalarining ishtiroki ta'minlansin;

"Techno Ways" marafonida ishtirok etadigan bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalarga marafon o'tkazilish sanasi uchun o'rtacha reyting ballari qo'yib berilishi ta'minlansin.

5. Raqamli ta'lif texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov tomonidan "Techno Ways" marafonini ochilish marosimi, seminar trening va talabalar taqdimotlarini o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

6. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'stmurodov, Bosh buxgalter B.I.Alijanova va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'aipovlar tomonidan "Techno Ways" marafoni bosqichlarini holis, shaffof va sifatlari o'tkazish uchun diplom va sertifikatlar tayyorlash hamda esdalik sovg'alar bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-harajatlar TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini ta'minlansin.

7. Matbuot kotibi G.T.Mirzayeva iqtidorli talabalar bilan ishslashning muhim tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, "Techno Ways" marafonida g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi va "Mening startap loyiham" mavzusida Seminar treningga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritilsin.

8. Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

"Techno Ways" marafonining TTA bosqichi yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar 5 (besh) kun muddat ichida Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiga hisobot topshirilsin;

"Techno Ways" marafonining TTA bosqichi yakunlanganidan so'ng unda g'olib bo'lgan TTAning bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari mazkur buyruq Nizomida belgilangan tartib va miqdorda rag'batlantirish to'g'risida buyruq loyihasi TTA rektoriga taqdim etilishi ta'minlansin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:
F.Abdumalikova

Bo‘lim boshlig‘i

Kelishildi:

F.Azizova	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
T.Bobomuratov	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor
S.Dustmuradov	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
O.G'aipov	Bo‘lim boshlig‘i
B.Alijanova	Bosh buxgalter
Sh.Islomqulova	Yuriskonsult
G.Mirzaeva	Matbuot hizmati bosh mutahassis
A.Musaxonov	Markaz rahbari